

9-sinf

Ona tili fanidan IV chorak CHSB (DEMO variant)

1. *Ingliz xalq maqollarida (1) “Ota – xazina, aka-uka – tayanch, do’st esa har ikkovidir” (2) deyiladi.* Bunda qanday tinish belgilari ishlatalishi kerak.
A. Ikki nuqta, vergul, tire C. nuqtali vergul, vergul tire
B. Tire, nuqta , tire D. nuqtali vergul,nuqta, tire

2. Ko‘chirma gapli qo‘shma gap qoliplarida tinish belgilari xato berilgan javobni toping.
A. M.”K”.
B. M.”K”-,m.
C.”K”,-m.
D.” K,-m,-k”.

3. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog‘liq xatolik mavjud emas?
A) Ona tilim sen borsan,shaksiz, Bulbul kuyin she’rga solaman.
B) Daraxtdagi barcha sayroqi qushlar sa’va ,bulbul,mayna va boshqalar unga jo‘r bo‘ldi.
C) Yaxshi niyatli kishilarning ahdi-shu.
D) A’lo o‘qish bizning asosiy vazifamizdir.

4. Yozuvda qaysi bog‘lovchilardan oldin doim vergul qo‘yiladi?
1) sabab bog‘lovchilari 2) aniqlov bog‘lovchilari 3) shart bog‘lovchilari 4)
biriktiruv bog‘lovchilari 5) zidlov bog‘lovchilari
A.1,2,3,4,5 B.1,2,3,5 C. 1,2,5 D. 2,3,5

5. Takrorlanadigan *yo, yoki goh, dam, ba’zan* bog‘lovchilari yordamida bog‘langan uyushiq bo‘laklar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?
A) nuqtali vergul
B) tire
C) ikki nuqta

D) vergul

6. *Vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul* kabi tinish belgilari qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lashda qo'shma gapning qaysi turida qo'llanishi mumkin?

- A) bog'langan qo'shma gaplarda
- B) ergash gapli qo'shma gaplarda
- C) bog'lovchisiz qo'shma gaplarda
- D) berilgan qo'shma gaplarning barchasida

7. *Yigitlar daraxtlarning ostini yumshatdilar // qizlar maktab hovlisini supurdilar.*

Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasiga qanday tinish belgisi qo'yilishi kerak?

- A) tire
- B) vergul
- C) ikki nuqta
- D) nuqtali vergul

8. Berilgan mulohazalar bo'yicha to'g'ri ma'lumotni toping.

Mulohaza	To'g'ri	Noto'g'ri
Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida hikoya qilish maqsadida tuzilgan matn hikoya matni sanaladi		
Hikoya matni ko'proq ilmiy va badiiy asarlarda qo'llanadi.		
Tasviriy matn so'zlashuv, badiiy asarlar va boshqa nutq shakllarida qo'llanadi.		
Muayyan voqeа-hodisa yoki narsa, shaxs haqida muhokama yuritish maqsadida tuzilgan matn muhokama matni sanaladi		
Muhokama matni ilmiy asarlarda ,badiiy, so'zlashuv va boshqa nutq shakllarida qo'llanmaydi;		

A)To'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri , to'g'ri, noto'g'ri

- B) Noto‘g‘ri, noto‘g‘ri, to‘g‘ri , to‘g‘ri, noto‘g‘ri
- C) To‘g‘ri, noto‘g‘ri, noto‘g‘ri , to‘g‘ri, noto‘g‘ri
- D) To‘g‘ri, to‘g‘ri, to‘g‘ri , noto‘g‘ri, noto‘g‘ri
9. Aytishlaricha, insonda hamma narsa// chehra ham, odob ham go‘zal bo‘lmog‘i lozim.
- Ushbu gapda // belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi ishlatilishi kerak?
- A) vergul
- B) tire
- C) ikki nuqta
- D) nuqtali vergul
10. Berilgan parchada nechta so‘z xato yozilgan?
- Ikromjon o‘zini yuqotib qo‘ydi. Qarshisida o‘tirgan bolasini yagona oyog‘i bilan tepib yubordi. Tursunboy orqasiga ag‘darilib tushdi. U to o‘rnidan turgincha Ikromjon emaklab borib boshiga, yuziga uraverdi. U mushlardi-yu, allaqanday xunik ovoz bilan baqirardi.
- A. 4 B.5 C.3 D.6